
Toshloqda konsert dasturi bo'lib o'tdi

Bugun tuman markaziy o'yingohida "Yoshlar oyligi" dasturi doirasida konsert dasturi yuqori saviyada o'tkazildi.

O'yingohda yig'ilgan ko'plab aholi vakillari hamda tuman yoshlari maroqli hordiq chiqardilar. Dastlab, sahnada sportchilar hamda harbiylarning chiqishlari namoyish etildi.

Konsertda elimiz suygan taniqli so'z ustasi Valijon Shamshiyevning ichakuzdi hangomalari hamda estrada yulduzlari Layli va Majnun ijrosidagi dilrabo kuy va qo'shiqlar barchaga hush kayfiyat ulashdi.

2023-06-05 08:55:42